

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YULDASHEVA DILSHODA MUSAYEVNA

EDVARD SEPIRNING ILMY MEROSI: LINGVO-KOGNITIV TAHLIL

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Yuldasheva Dilshoda Musayevna

Edvard Sepirning ilmiy merosi: lingvo-kognitiv tahlil.....3

Юлдашева Дилшода Мусаевна

Лингвокогнитивный анализ научного наследия Эдварда Сепира.....31

Yuldasheva Dilshoda Musayevna

Lingvo-cognitive analysis of Edward Sapir’s scientific heritage61

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YULDASHEVA DILSHODA MUSAYEVNA

EDVARD SEPIRNING ILMIY MEROSI: LINGVO-KOGNITIV TAHLIL

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil844 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirzayev Ibodulla Kamalovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxiddinov Anvar Gafurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "16" noyabr kuni soat 8⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, B.Marginoniy ko'chasi 105- uy, Tel.: (373) 244-44-02; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: fardu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (416 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "29" "oktabr" kuni tarqatildi.
(2024-yil "29" "oktabr" dagi 45 raqamli restr bayonnomasi).



S.M. Muminov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlar doktori, professor

M.T. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

Sh.M. Iskandarova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida Edvard Sepir ilmiy merosining lingvo-kognitiv tahlilini amalga oshirish nihoyatda muhim. Uning umumiy tilshunoslik va lingvometodikani rivojlantirishga qoʻshgan ulkan hissasiga munosib baho berish mushkul. Zero, Edvard Sepir mashhur antropolog, hindu tillarining bilimdoni, AQSH Milliy akademiyasi aʼzosi boʻlgan. Olimning AQSHdagi ilmiy va pedagogik faoliyati davrida milliy tilshunoslik maktabi hali shakllanmagan boʻlsa-da, olimlar, jumladan, E.Sepirning fundamental tadqiqotlari buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi. Olimning gʻoyalari asosida hozirgi zamon tilshunosligida keng shuhrat qozongan va hamon bahs-munozaralarga sabab boʻlayotgan lingvistik nisbiylik nazariyasi ishlab chiqildi (Sepir-Uorf gipotezasi).

Dunyo tilshunosligida E.Sepirning “til” tushunchasiga munosabati ham jiddiy ilmiy qiziqish uygʻotadi. Unga koʻra, til ongli faoliyatning ajralmas qismni tashkil qiladi. Mazkur amerikalik tilshunosning fikricha, aynan til madaniyat va tarixiy vorisiylikda salmoqli oʻrin egallaydi. E.Sepir tovush darajasi – fonemalarda aks etgan birliklarining ramziy xarakterini alohida taʼkidlaydi. Uning fikricha, aynan obyektiv voqelikni ifodalashning ramziy asosida boʻlgan til inson faoliyatida, shu jumladan, kommunikativ va psixologik vazifalarini amalga oshirish vositasiga aylantirgan.

Mamlakatimizda XX asr nihoyasi va XXI asrning ilk choragida kuzatilgan oʻzgarishlar samarasi oʻlaroq til va tilshunoslikka oid masalalarga yechim topishda dissertatsiya tadqiqotining tanlangan mavzusi nazariy-uslubiy jihatdan xizmat qiladi. Darhaqiqat, bugungi kun voqeliklarini va u bilan bogʻliq lingvistik tahlilning kelgusi rivojlanishiga oid istiqbolli yoʻnalishlarni hisobga olgan holda, qoʻshimcha tadqiqotlar oʻtkazilishida mazkur ish muayyan ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning fikricha, hozirgi zamonning yuksak talablarini hisobga olgan holda butun taʼlim tizimini rivojlantirish birinchi darajali masala hisoblanadi¹. Shu sababli bugungi kunda umumiy tilshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan buyuk olimlardan biri E.Sepir lingvistik taʼlimotining asosiy tamoyillarini tadqiq qilish samarali ekani shubhasiz. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti E.Sepirning til, madaniyat va tafakkur sohalariga nisbatan ilmiy-tahliliy yondashuvlarini aniqlashga, shuningdek, uning ilmiy-uslubiy merosidan oʻrin olgan fikrlari asosida lingvistik taʼlimotlar rivojlanishi istiqbollari ochib berishga yoʻnaltirilganligi bilan ham dolzarbdir.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-sonli Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-4958-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari

¹ Файзиев О. Образование – это знания, обеспечивающие эволюцию человечества. 18.02.2017. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://kun.uz/ru/58264229> (дата обращения: 10.10.2022).

to'g'risida"gi PF-5850 Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Edvard Sepirning ilmiy merosi jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, xususan, University of California, Centre for American Indian Languages (CAIL), Texas State University, Cambridge University, The American Anthropological Association (AAA), University of Nebraska, American Indian Language Development Institute, University of Nevada, American Linguistic Association (ALA) (AQSH); Simon Fraser University, Mc Master University, Dalhousie University, Calgary University, The University of British Columbia, Western University, University of Ottawa (Kanada); Buyuk Britaniyaning Kognitiv Tilshunoslik assotsiatsiyasi (UK CLA), Newcastle University (Buyuk Britaniya); Rossiya Fanlar Akademiyasi tilshunoslik instituti, Rossiya fanlar akademiyasi falsafashunoslik institutlarida o'rganib kelinmoqda.

So'nggi yillarda Edvard Sepirning ilmiy merosi bo'yicha tadqiqotlar olib borish jarayonida qator ilmiy natijalar olingan: E.Sepirning nazariy fikrlari Kanada lingvistik antropologiyasida "Boasiyan paradigmasining g'alabasiga" hissa qo'shgani aniqlangan (Western University, Kanada); "Tilda nisbiylik gipoteza"si deb nom olgan Sepir-Uorf farazi, til kognitiv jarayonlarining ma'lum turlariga, garchi noaniq usulda bo'lsa-da, ta'sir qilish jihatlari ko'rib chiqilgan (American Linguistic Association, AQSH; Rossiya Fanlar Akademiyasi tilshunoslik instituti; University of Ottawa, Kanada); E.Sepirning "hayda" tilining fonetikasiga qo'shgan hissasi, u tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiyaning fonetik va fonemik tahlilida beqiyos samarali ekani asoslangan (Simon Fraser University, Calgary University, Kanada; Centre for American Indian Languages, AQSH); E.Sepirning o'z yozuviga ega bo'lmagan tillarda qiyosiy usullarni qo'llash samaradorligi, ularni genetik va fonetik tahlil qilish usullari haqidagi ilmiy nazariyalari dalillangan (University of Kalgari, Kanada; Newcastle University (Buyuk Britaniya; Rossiya Fanlar Akademiyasi tilshunoslik instituti) va boshqalar.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.academia.edu, www.universityofcalifornia.edu, www.utexas.com, www.cam.ac.uk, www.americanantro.org, www.nebraska.edu, www.unlv.edu, www.sfu.ca.edu, www.lsadc.org, www.mcmaster.ca, www.dal.ca, www.ucalgary.ca, www.ubc.ca, www.outtawa.ca, www.ncl.ac.uk, www.msu.ru, www.linguanet.ru, www.aildi.arizona.edu.

Bugungi kunda Edvard Sepirning ilmiy merosini o'rganish sohasida jahon tilshunosligidagi yangi g'oyalar va an'analarning rivojlanishi bilan bog'liq holda quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tilda nisbiylik gipotezasining namoyon bo'lishini tasdiqlovchi qo'shimcha dalillarni aniqlash, Edvard Sepir ta'limotida Shimoliy Amerika tub aholisi tillarining kelib chiqishi, ularning fonetik, grammatik tuzilishi haqida nazariy fikrlarni asoslash; o'z yozuviga ega bo'lmagan tillarni o'rganishda dala tadqiqotlarining o'rnini belgilash; Edvard Sepir tomonidan ishlab chiqilgan tillar tasnifini yanada rivojlantirish; tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlarga qo'shimcha dalillar topish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rus tilshunosligida lingvistik ta'limotlar muammolari kompleks va tizimli tarzda tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalari ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar va sharhlarda o'z aksini topgan. Amalga oshirilayotgan tadqiqot mavzusi doirasida T.A.Valiulina³, P.Y.Kovalishin⁴, O.I.Kopach⁵, B.A.Larin⁶, O.V.Lukin⁷, A.A.Shelkovnikov, T.A.Selemeneva⁸ va boshqalarning tadqiqotlarini alohida ko'rsatish maqsadga muvofiq. Ularda E.Sepirning umumiy tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tadqiqotlarining ahamiyati aks ettirilgan. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi e'lon qilingan Katta sovet ensiklopediyasida⁹ E.Sepirning umumiy tilshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi batafsil yoritilgan.

G'arb tilshunosligida ushbu muammo chuqur tadqiq qilingan. Bu borada G.Bursill-Hall¹⁰, R.Gruhn, D.Murray¹¹, E.F.Koerner¹², R.J.Preston¹³ kabi olimlarning asarlari alohida e'tiborga molik, zero ularda zamonaviy lingvistik tadqiqotlar nazariy-uslubiy asoslarning tizimli tahlili tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan va E.Sepirning XX asr umumiy tilshunosligi rivojlanishiga qo'shgan hissasiga baho berilgan.

O'zbek tilshunosligida olimlarning lingvistik merosini o'rganishga bag'ishlangan asarlari mavjud. Ayniqsa, o'zbek tilidagi lingvistik va lingvodidaktik terminologik birliklarning shakllanish manbalarini va rivojlanish omillarini

³ Валиулина Т.А. Наследие Э. Сепира в канадской лингвистике и лингвистической антропологии // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – 2021. – №7 (849). – С. 35-49.

⁴ Ковалишин П.Ю. Гипотеза «языковой относительности» Эдварда Сепира и Бенжамина Уорфа // Наука сегодня. Сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции. – Вологда: Научный центр «Диспут», Издательство: ООО «Издательский дом Вологжанин», 2014. – С. 35-37.

⁵ Копач О.И. Общее языкознание: электронный учебно-методический комплекс для специальности «Современные иностранные языки (преподавание)». – М.: Наука, 2017.

⁶ Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – С. 200-208.

⁷ Лукин О.В. История языкознания с VI в. до н. э. до середины XX в.: учебное пособие. – Ярославль: РИО ЯГПУ, 2015.

⁸ Шелковников А.А., Селеменова Т.А. Язык и культура в их взаимодействии // Академический журнал. – 2012. – № 10. – С. 90-98.

⁹ Эдвард Сепир // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А.М. Прохоров. 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.

¹⁰ Bursill-Hall, G. The linguistic analysis of North American Indian songs // Canadian Journal of Linguistics. – 1964. – 10 (1). – P. 15–36.

¹¹ Gruhn R., Murray, D. Some Caveats Regarding Linguistic Diversity and the Peopling of the Americas // Man, New Series. – 1992. – Vol. 27. – N 2. – P. 403–408.

¹² Koerner E.F. Edward Sapir: Appraisals of life and work. – Amsterdam: John Benjamins. 2010.

¹³ Preston R.J. Reflections on Sapir's anthropology in Canada // Canadian Review of Sociology. – 1980. – N 17. – P. 367–375.

o'rganishga katta hissa qo'shgan I.Bozorovning¹⁴, N.P.Babaniyazovaning¹⁵, chet tillarini sifatli va samarali o'rganish, O'zbekistonda chet tillarini o'rganishning hozirgi zamon muammolarini va istiqbollari belgilashga muvaffaq bo'lgan; M.B.Baxtiyorova¹⁶ umumta'lim maktablarida chet tillarni o'rganishning tarixiy jihatlarini o'rganib chiqqan; Sh.A.Kenjabojev¹⁷ mutaxassislarni kasbga tayyorlashning madaniyatlararo kompetensiyasini tavsiflagan; G.R.Abirova¹⁸ va boshqalarning tadqiqotlarini chuqur mazmunli asarlarini alohida qayd etish zarur. Ayni paytda, afsuski, o'zbek tilshunosligida amerikalik tilshunos olim Edvard Sepirning ilmiy va uslubiy merosiga bag'ishlangan tizimli tadqiqotlar mavjud emas.

Dissertatsiyada ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun amerikalik olim E.Sepirning ilmiy tadqiqotlaridan, jumladan, "Language. An introduction to the study of speech"¹⁹, "Избранные труды по языкознанию и культурологии"²⁰, "Язык как образ мира"²¹, "The problem of noun incorporation in American languages"²²; jurnal va to'plamlardagi maqolalaridan: "Herder's "Ursprung der Sprache"²³, "Speech as a personality trait"²⁴, "The grammarian and his language"²⁵, "The status of linguistics as a science"²⁶ va boshqa asarlariga murojaat qilindi.

Dissertatsiya tadqiqoti turli manbalarga tayanadi. Bu o'rganilayotgan mavzu doirasidagi ishonchli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining "Til birliklarining funksional pragmatik va semantik, stilistik tahlili (sinxron va diaxron jihatlar)" mavzusidagi tadqiqotlar rejasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Edvard Sepir ilmiy merosini lingvo-kognitiv tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi lingvistikaning asosiy tendensiya va tamoyillarini umumlashtirish;
AQSH tilshunoslarining ilmiy merosini o'rganish;

¹⁴ Базаров И. Основные источники формирования и развития лингводидактических терминологических единиц в узбекском языке // Исследования языка в синхронии и диахронии. – 2019. – № 6 (29). – С. 33-43.

¹⁵ Бабаниязова Н.П. Современное состояние изучения иностранных языков в Республике Узбекистан: анализ государственных программ и учебников // Преподаватель XXI век. – 2016. – №1. – С. 107-119.

¹⁶ Бахтиёрова М.Б. Изучение иностранного языка: проблемы и перспективы // Молодой ученый. – 2015. – № 15 (95). – С. 690-692.

¹⁷ Кенжабаев Ш.А. История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе. Дисс...канд. пед. наук. – Ташкент, 1998.

¹⁸ Абилова Г.Р. Межкультурная компетенция в профессиональной подготовке специалистов // Потенциал современной науки. – 2016. – № 7. – С. 86-88.

¹⁹ Sapir, E. Language. – N.Y.: Harcourt, Brace & Co., 1921. – VII.

²⁰ Эдвард Сепир. Избранные труды по языкознанию и культурологии. –М., Прогресс: Универс 1993.

²¹ Мюллер М., Сепир Э., Уорф Б.Л., Витгейнштейн Л. Язык как образ мира. Антология. АСТ, Terra fantastica – 2003. – С. 576

²² Sapir E. «The problem of noun incorporation in American languages» // Amer. anthropologist. – Menasha, 1911. – Vol. 13 (N.S.). – P. 250-282

²³ Sapir, E. Herder's "Ursprung der Sprache". Modern Philology. – 1907. – No 5. – P. 110-132.

²⁴ Sapir, E. Speech as a personality trait // Amer. j. of sociology. – Chicago, 1927. – Vol. 32. – P. 892-905.

²⁵ Sapir, E. The grammarian and his language // Amer. Mercury. – N.Y., 1924. – N 1. – P. 149-155.

²⁶ Sapir, E. The status of linguistics as a science // Language. – Baltimore, 1929c. – Vol. 5. – P. 207-214.

E.Sepirning tilshunoslikka fan sifatida qarashlarini tavsiflash;
E.Sepirning lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistikaga qo‘shgan hissasini umumlashtirish;

E.Sepir etnografik lingvistikasiga doir qarashlarini aniqlash;
E.Sepir asarlarining Amerika deskriptivizmi rivojlanishida tutgan o‘rni va ahamiyatini aniqlash;

E.Sepirning Kanada lingvistik antropologiyasiga qo‘shgan hissasini tahlil qilish;

lingvistik nisbiylik nazariyasi mohiyatini o‘rganish;

E.Sepir asarlarining boshqa tillarga tarjimasini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida AQSH tilshunoslarining ilmiy merosi olingan.

Tadqiqotning predmetini Edvard Sepir ilmiy merosining lingvokognitiv tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari: Tadqiqot ishida qo‘yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni bajarishda qiyosiy tipologik, tavsifiy, sinxronik va diaxronik, distributiv, oppozitsion va komponentli miqdoriy metodlarga asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

E.Sepirning lingvistikaga fan sifatida qarashlari, uning lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistikaga, tilning madaniyat bilan bog‘liqligi, tillar o‘rtasidagi struktural farqlari va ularning ijtimoiy omillar bilan aloqadorligi masalalarga qo‘shgan hissasi aniqlangan;

E.Sepirning lingvistik ta’limotining muhim konsepsiyasi, til va tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari uning psixolingvistik qarashlarida tilning inson tafakkuriga ta’siri, tafakkur va dunyoqarashning til orqali shakllanishi hamda turli tillarning turlicha tafakkur modellarini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi aks etgani asoslangan;

Amerika deskriptivizmning rivojlanishida E.Sepir asarlarida til hodisalarini obyektiv ravishda tavsiflash, tilni struktur jihatdan tahlil qilishga bo‘lgan yondashuvining o‘rni va lingvistik fenomenlarni kuzatish, tasniflash hamda tillarni tuzilmalar bo‘yicha taqqoslash usullarini ishlab chiqishda ahamiyatga molikligi asoslangan;

E.Sepir merosining Kanada tilshunosligida va lingvistik antropologiyadagi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qo‘shgan hissasi, kognitiv jarayonlarning lingvistik nisbiylik farazida ifodalanishining til tafakkurni shakllantirishdagi roli va til tizimlarining tafakkur tarzlariga ta’siri o‘ziga xosligi ochib berilib, E.Sepir tadqiqotlarining boshqa tillarga tarjimasining madaniyatlararo kommunikatsiya va tilshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi mohiyati asoslandi;

E.Sepirning tilda “dreyf” tushunchasi haqidagi ta’limoti rivojlantirilib, uning (o‘zbek, rus va ingliz tillari materiallarida) savodli va savodsiz so‘zlovchilarda kuzatiladigan til o‘zgarishlari va talaffuzdagi farqlar orqali tilning evolyutsiyasi yangi murakkab muammolarni til tizimining barqarorligi va o‘zgaruvchanligi masalalarini oydinlashtirishga ko‘maklashgani dalillangan;

undosh tovushlarda “sibilyant” tushunchasi ostida [s], [z], [sh], [ch] kabi shovqinli sirg‘aluvchi undosh tovushlarga ta’rif berilib, ulardan fonetik tizimda

urg‘u va artikulyatsiya jarayonida foydalanish tovushlarni farqlash va talaffuzni aniqlashtirishga xizmat qilishi dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: atoqli amerikalik tilshunos, antropolog va etnolog Edvard Sepirning ilmiy merosini o‘rganish jarayonida qilingan xulosalar turli tizimli tillarning qiyosiy tipologiyasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar taqdim etadi²⁷, umumiy lingvistik ta’limotlari tarixi, xususan, Amerika lingvistikasi bo‘yicha nazariy va amaliy kurslarni o‘rganish tamoyillarini takomillashtirishga hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalaridan olingan ilmiy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik merosni o‘rganish va o‘qitishni yanada takomillashtirish mazkur masalani kognitiv tilshunoslik yo‘nalishida o‘rganishni ham takomillashtirish lozimligi asoslanadi.

Tadqiqot natijalaridan o‘quv-uslubiy maqsadlarda foydalanish mumkin, ya’ni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va izohli ikki tilli lingvistik lug‘atlarni tuzishda, masalan, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, madaniyat tilshunosligi va boshqalar. Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ular lingvistik-kognitiv tahlil va diskurslar, shu jumladan, badiiy tahlillarni takomillashtirish bo‘yicha kompleks tavsiyalarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va tahlil usullarining zamonaviy lingvistik nazariyalarga mos kelishi, shuningdek, uslubiy jihatdan asosli ekanligi, tadqiqot materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, o‘rganilayotgan muammoning dalillarga tayanib aniq oydinlashtirilganligi, ilmiy tadqiqot usullarining qat’iy belgilanganligi, xulosalar mantiqiy ravishda taqdim etilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilganligi va bularning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati uning dolzarbligi va ilmiy yangiligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga asoslangan xulosa va tavsiyalar lingvistik uslubiy ta’limotlar tarixi haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirishga katta hissa qo‘shadi. Ayni paytda amerikalik tilshunos va antropolog E.Sepir merosi, asarlarining mohiyati O‘zbekistonda tilshunoslik ilmini yanada takomillashtirishda katta qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqotdan olingan natijalardan ta’limiy va amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin. Ta’lim sohasida dissertatsiya materiallaridan lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, pedagogika, tarjima nazariyasi kabi o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tuzishda foydalanish mumkin. Amaliy yo‘nalishda dissertatsiya tadqiqoti qoidalaridan pedagogika va lingvistikani takomillashtirish bo‘yicha kompleks tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining xorijiy filologiya fakultetlarida “Umumiy tilshunoslik”, “Amaliy va nazariy fonetika”, “Madaniyatlararo muloqot” kabi fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, tilshunoslik nazariyasi, matn lingvistikasi, lingvomadaniyatshunoslik, diskursga oid seminarlarni tashkil etishda, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini,

²⁷ Березин, Ф. М. Основные этапы развития американской лингвистики в XX в – М.: Институт научной информации по общественным наукам 2001. – С. 3.

lugʻatlar, maʼruza matnlarini tuzishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda qoʻl kelishi, bitiruv malakaviy ishlarni va dissertatsiyalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligida namoyon boʻladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Edvard Sepirning ilmiy merosi: lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash jarayonida ishlab chiqilgan nazariy xulosa va takliflar asosida:

E.Sepirning lingvistikaga fan sifatida qarashlari, uning lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistikaga, tilning madaniyat bilan bogʻliqligi, tillar oʻrtasidagi struktural farqlari va ularning ijtimoiy omillar bilan aloqadorligi masalalarga qoʻshgan hissasi haqidagi maʼlumotlardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialida 2017-2020- yillarda bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2024-yil 5-iyundagi 226/1-son maʼlumotnomasi). Natijada E.Sepirning ilmiy merosi haqidagi maʼlumotlar nafaqat oliy taʼlimda oʻtiladigan fanlar oʻqitilishida, balki keng omma uchun moʻljallangan adabiyotlar yaratishda ham muhim manba boʻlib xizmat qilishi taʼminlangan;

E.Sepirning lingvistik taʼlimotining muhim konsepsiyasi, til va tafakkurning oʻziga xos xususiyatlari uning psixolingvistik qarashlarida tilning inson tafakkuriga taʼsiri, tafakkur va dunyoqarashning til orqali shakllanishi hamda turli tillarning turlicha tafakkur modellarini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon boʻlishi xususidagi xulosalardan Oʻzbekiston davlat xoreografiyasi akademiyasida amalga oshirilgan “Oʻzbek milliy raqs sanʼatini targʻib etishga bagʻishlangan veb sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lugʻat) toʻplamini yaratish” mavzusidagi IZ-2019081663 raqamli fundamental loyiha doirasida “Oʻzbek milliy raqs terminlarining qisqacha oʻzbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lugʻati”ni yaratishda foydalanilgan (Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2024-yil 29-maydagi 1/04-99-son maʼlumotnomasi). Natijada loyihaning oʻzbek milliy raqs sanʼati terminologiyasini sistematik oʻrganish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va raqs sanʼati atamalarining koʻp tilli izohli talqinini yaratish ilmiy nazariy asoslari boyitilgan.

E.Sepirning tilda “dreyf” tushunchasi haqidagi taʼlimoti rivojlantirilib, uning (oʻzbek, rus va ingliz tillari materiallarida) savodli va savodsiz soʻzlovchilarda kuzatiladigan til oʻzgarishlari va talaffuzdagi farqlar orqali tilning evolyutsiyasi yangi murakkab muammolarni til tizimining barqarorligi va oʻzgaruvchanligi masalalarini oydinlashtirishga koʻmaklashganiga oid maʼlumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan PV201912258 “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” (2021-2023) nomli innovatsion tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-apreldagi 04/1-854-son maʼlumotnoma). Natijada loyihaga oid ilmiy va uslubiy materiallar ilmiy dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

E.Sepir merosining Kanada tilshunosligida va lingvistik antropologiyadagi til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qo'shgan hissasi, kognitiv jarayonlarning lingvistik nisbiylik farazida ifodalanishining til tafakkurni shakllantirishdagi roli va til tizimlarining tafakkur tarzlariga ta'siri o'ziga xosligi ochib berilib, E.Sepir tadqiqotlarining boshqa tillarga tarjimasining madaniyatlararo kommunikatsiya va tilshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi to'g'risidagi materiallardan Samarqand davlat chet tillari institutida amalga oshirilgan 2016-2018 Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2024-yil 26-martdagi 649/02-son ma'lumotnomasi). Natijada E.Sepirning jahon tilshunosligiga qo'shgan hissasi va shu asosda shakllangan ilmiy nazariya hamda metodologiya loyihaning takomillashuviga xizmat qilgan;

undosh tovushlarda "sibilyant" tushunchasi ostida [s], [z], [sh], [ch] kabi shovqinli sirg'aluvchi undosh tovushlarga ta'rif berilib, ulardan fonetik tizimda urg'u va artikulyatsiya jarayonida foydalanish tovushlarni farqlash va talaffuzni aniqlashtirishga xizmat qilishi haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" teleradiokanalida "Edvard Sepirning ilmiy merosi mavzusida yozilgan ilmiy ish natijalaridan "Tilimiz – boyligimiz", "Innovatsiya" eshittirishlarida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-maydagi 14-05-85-son ma'lumotnomasi). Natijada eferga uzatilgan dasturlarning ilmiy nazariy asoslari hamda ijtimoiy ma'lumotlari boyitilgan;

Amerika deskriptivizmning rivojlanishida E.Sepir asarlarida til hodisalarini obyektiv ravishda tavsiflash, tilni struktur jihatdan tahlil qilishga bo'lgan yondashuvining o'rni va lingvistik fenomenlarni kuzatish, tasniflash hamda tillarni tuzilmalar bo'yicha taqqoslash usullarini ishlab chiqishda ahamiyatga egaligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yosh ijodkorlar bilan ishlash bo'limi hamda Adabiy aloqalar va badiiy tarjima bo'limi tomonidan o'tkazilgan "Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar yosh ijodkorlari" nomli anjuman doirasida foydalanilgan (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 30-maydagi 01-03/629-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekistonda yosh ijodkorlar tomonidan buyuk olim E.Sepir ilmiy merosi va lingvokognitiv tahlil usuli o'rganilib, turkiy tillar bilan shug'ullanadigan yoshlarga ijodiy mahorat darslarining ilmiy jihatdan boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy xulosalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar shaklida taqdim qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy maqola va 1 ta monografiya nashr etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarida 12 ta maqola, 2 ta nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda, 8 ta xorijiy va respublika ilmiy amaliy konferensiyalarida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 235 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilish darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslari”** deb nomlanib, tilshunoslik ta‘limotiga oid zamonaviy tadqiqotlarning nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda lingvistik ta‘limotlarning ilmiy meros sifatida rivojlanishi tarixi tavsiflanadi, AQSh zamonaviy tilshunosligining asosiy yo‘nalishlari va tamoyillariga aniqlik kiritiladi.

“Zamonaviy lingvistikaning asosiy tendentsiyalari va tamoyillari” deb nomlangan birinchi faslda hozirgi zamon tilshunosligining quyidagi asosiy tamoyillari umumlashtirilgan: integrativlilik, antropomarkazlashuv, kommunikativlilik, muloqotlilik, diskursivlilik va madaniy markazlashuv. XXI asrda AQShda lingvistik tadqiqotlarning asosiy tendentsiyalarini ularning fanlararo va lingvomadaniy xarakteri belgilamoqda. So‘zlovchi/tinglovchi shaxsiga oid kompleks tahlillarni amalga oshirish ehtiyoji nihoyatda dolzarb tamoyil ekanligi aniqlandi. Zero, G.Gegel ta‘kidlaganidek: *“Faqat yaxlit narsagina ma‘noga ega”*.²⁸ Hozirgi paytda shuni ta‘kidlash mumkinki, ushbu jarayonda kognitiv kategoriyalardan foydalanilmasa va madaniyatshunoslikka oid jihatlar hisobga olinmasa, til shakllarini o‘rganish cheklangan bo‘lib qoladi.

Integrativlilik – hozirgi paytda tilshunoslik turli fanlar, shu jumladan, tarix, antropologiya, psixologiya, genetika, madaniyatshunoslik, jamiyatshunoslik, iqtisodiyot va boshqa fanlar integratsiyalashuvi doirasida rivojlanishga moyil. Ushbu fikr XX asrning oxirida bilimlarning turli sohalari tutashgan holda yangi fanlar, masalan, lingvokonseptologiya, lingvomadaniyatshunoslik, yuristlingvistika kabi fanlarning paydo bo‘lishi hodisasi bilan tasdiqlanadi. Ushbu fanlar integrativ yondashuvga asoslangan.

Antropomarkazlashuv – insonni tilda va tilni insonda tadqiq qilishni nazarda tutadi. Zero, I.A.Boduen de Kurtenening fikricha, til faqat individlarning ongida va tafakkurida, muayyan til jamoasiga kiruvchi odamlarning qalbida va ruhiyatida mavjuddir.²⁹ XXI asr tilshunosligi deyarli to‘laligicha antropomarkazlashuv qonuniyatiga asoslangan holda shakllantirilgan, bu esa faqat til tizimi birliklarining individual xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi, chunki til jamoaning murakkab

²⁸ Бақрадзе К.С. Система и метод философии Гегеля. – Тбилиси: Изд-во ТГУ, 1958. – С. 53.

²⁹ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – Т. 2. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – С. 71.

va ko‘p qirrali hodisasidir. Til bir vaqtning o‘zida ruh va materiyani, tizim va antitizimni hamda ularning mahsulini ifodalaydi.

Kommunikativlilik – tilshunoslik hodisasi va ruhiy-kognitiv hodisa sifatida insonlararo muloqotni, fikr, bilim, his-tuyg‘ular almashinuvini ifodalaydi. M.Buber shunday xulosaga keladiki, odamning munosabatlari tabiati uch yoqlamadir: dunyo (buyumlar) bilan, odam (odamlar) bilan, sir-u sinoat (Xudo) bilan.³⁰ Dunyo bilan munosabatlar san‘at orqali namoyon bo‘ladi, odamlar bilan munosabatlar muhabbatda ifodalanadi, Xudo bilan munosabatlar esa diniy ongda ifodalanadi, uning vositasida odam o‘zi eshitmayotgan, ammo his qilayotgan da‘vatga javob qaytaradi. Bu uchlik universal bo‘lib, inson va uning namoyon bo‘lishi shakllari majmuasi haqidagi ta‘limotning asosini tashkil etadi.

Muloqotlilik – L.V.Sherbaning fikricha, tilning haqiqiy voqeligi faqat muloqotda namoyon bo‘ladi.³¹ Muloqotlilik tamoyilida til mavjudligining yagona shakli bo‘lgan ijtimoiy mohiyati yuzaga chiqadi. Matnning muloqotlilik tabiati turli fanlarda “dialog” tushunchasidan tashqari “polilog” atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Har qanday matn polilog bo‘ladi, chunki ularda “ko‘p ovozlilik paradoksi” kuzatiladi va unda muallif, tadqiqotchi hamda kitobxon o‘zaro muloqotga kirishadi. Matn faqat inson tomonidan anglanishi natijasida ma‘noga ega bo‘ladi.

Diskursivlilik – M.M.Baxtinning fikricha, diskurs vositasida badiiy asar turli avlodlarda o‘z yashovchanligiga ega bo‘ladi,³² E.Benvenistning nuqtayi nazariga ko‘ra, diskurs til hayoti demakdir.³³ Diskurs kommunikativ voqea hisoblanadi, shu sababli uni tadqiq qilishda va ta‘riflashda faoliyat nazariyasiga amal qilish kerak.

Madaniy markazlashuv – tadqiqot markazida har doim madaniyat mavjud bo‘ladi. Buni til va madaniyat ajralmas yaxlitlikni tashkil etishi bilan izohlash mumkin. Lingvomadaniy interferensiya muammosi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.³⁴ Inson voqelikni dunyo haqidagi tilga va madaniyatga oid tasavvurlari orqali anglaydi.³⁵ Har bir lingvomadaniyatda kundalik, diniy, falsafiy va boshqa ong bilan bog‘liq g‘oyalar keng tarqalgan bo‘lib, ular an‘analar, urf-odatlar, qadriyatlar va turmush tarzining asosiy ma‘nolariga bog‘liq.

Ushbu dissertatsiyada biz diqqatimizni dunyoning lingvistik va madaniy manzarasiga qaratamiz. Dunyoning madaniy manzarasi o‘zida xalqi va boshqa xalqlarning me‘yorlari, qadriyatlari, axloqi va mentaliteti haqidagi bilimlarni

³⁰ Бубер М. Проблема человека. – Киев: Ника-Центр; Вист-С, 1998. – С. 61.

³¹ Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – С. 4.

³² Бахтин М.М. Проблемы текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных наук. Опыт философского анализа // в книге Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 403.

³³ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – С. 139.

³⁴ Гаджиева А.А. Некоторые аспекты преподавания казахского языка в русскоязычной аудитории // Полилингвильность и транскультурные практики. – 2022. – №5. – С. 64-70; Гальченко Р.Г. Методика преодоления интерференции в условиях многоязычия. – М.: Наука, 2012. – 312 с.; Сулейменов Р.Х. Интерференция в обучении иностранному языку и способы ее преодоления // Международный научно-исследовательский журнал. – 2021. – №4 (106). – С. 43-49; Kharkhurin, A.V. The Role of Cross-linguistic and Cross-cultural experience in Bilinguals Divergent Thinking // Cognitive Aspects of Bilingualism. – 2023. – N 6. – P. 175-210

³⁵ Айдукевич К. Картина мира и понятийный аппарат // Философия науки. Вып. 2: Гносеологические и логико-методологические проблемы. – М.: ИФ РАН, 2022. – С. 231; Зорин В.И. Евразийская мудрость от А до Я: философский толковый словарь. – Алматы: Создік-Словарь, 2021. – С. 118.

birlashtiradi. Shuningdek, unga shaxsiy subyektiv baholar, his-tuyg'ular, ma'nolar va tajribalar ham kiradi.³⁶ Ayni paytda dunyoning tilga oid manzarasini o'rganish nihoyatda mushkul bo'lib, madaniyat va ong omillarining hisobga olinishini taqozo qiladi.

“AQSh tilshunoslarining ilmiy merosini o'rganish” deb nomlangan ikkinchi faslda ta'kidlanadiki, F.Boas AQShdagi eng yetakchi intellektual tilshunosga aylangan, uning tadqiqotlari barcha tilga oid keyingi tadqiqotlarning asosini tashkil etgan. Frans Boas, AQSh mahalliy xalqlarining tillarini sinchkovlik bilan ko'p yillik o'rganish jarayonida shunday muhim xulosalarga keladiki, ushbu tillar bilan tanishuv hind-yevropa tillari va boshqa tillarga oid muammolar bo'yicha ish olib borayotgan shaxslar uchun haqiqiy kashfiyot bo'lishi mumkin.

Olimning fikricha, tillarni taqqoslash jarayonida barcha tillar va madaniyatlarning betakrorligiga tayanish zarur. Aynan uning tadqiqotlari Amerikaning antropologik va deskriptiv lingvistikasini shakllantirgan.

Umuman olganda, XX asrda Amerika tilshunosligi rivojlanishining bir necha bosqichini qayd etish mumkin: 1) 1925-1950 yillarda olimlar, asosan, alohida va yakunlangan fikrlarni tadqiq qilgan. Ular nutq rivojlanishining umumiy xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish orqali tillardagi o'ziga xos elementlarni aniqlagan. Bunda tilshunoslarga substitutsiyaning eksperimental texnikasi yordam bergan, zero, uning yordamida lingvistik elementlarni tasniflash hamda tahlil qilish orqali ularning birikuv qonuniyatlarini aniqlash mumkin edi. AQSh tilshunoslarining barcha tadqiqotlari segmentatsiya va substitutsiya usullariga, shuningdek, o'sha paytda ancha mashhur bo'lgan distributiv tahlillariga asoslangan edi. Transformatsiya usulining ommalashuvi shunga olib keldiki, tilning sintaktik tizimi haqida birmuncha murakkabroq va ommalashgan hosila gaplarga aylanishga qodir bo'lgan oddiy o'zak gaplar to'plami, degan tasavvur paydo bo'ldi. O'sha davrda Amerika tilshunosligida umumiy yetakchi yo'q edi, ammo ushbu yo'nalishda J.Treyjer, Z.Xarris va Ch.Xokket eng taniqli olimlarga aylandi; 2) 1950-1970 yillarda Amerika tilshunosligida transformatsion-generativ grammatikani (TGG) rivojlantirishga barqaror moyillik kuzatila boshlandi. Uning muallifi N.Xomskiy bo'lgan. Uning ta'limotiga ko'ra, so'zlovchi har doim qanday qilib zarur transformatsiyalar orqali tub strukturani yuzakisiga almashtirish mumkinligini tushunadi. TGG tilga muayyan ideal model sifatida universal ta'rif beradi, ammo tilning kommunikatsiya vositasi sifatida amaliy qo'llanishini o'rganmaydi; 3) 1970 yillarning oxirida AQSh tilshunoslari diskursiv lingvistikani o'rgana boshlagan, buning natijasida nutqiy aktlar va nutqiy janrlar nazariyasi paydo bo'lgan. Ayni paytda olimlarning tadqiqotlarida umumiy nazariy dominanta mavjud bo'lmagan. Hozirgi paytda AQSh tilshunoslari (yevropalik tilshunoslar kabi) bilimning neofunksional paradigmasi ustida ish olib borishmoqda. U til hodisalarini tadqiq qilishda kognitiv va kommunikativ yondashuvlarda ifodalanadi.

“XX-XXI asrlarda Amerika tilshunosligining asosiy oqimlari” deb nomlangan uchinchi faslda “Zamonaviy Amerika tilshunosligi: Fundamental yo'nalishlar”³⁷


³⁶ Ibid. – С. 48.

³⁷ Кибрик А.А., И.М.Кобозева И.М. и Секерина И.А. Современная американская лингвистика: Фундаментальные направления. – М., УРСС, 2002. – С.339.

monografiyasi qisqacha sharhlanadi. Sharh uchun ushbu monografiyaning tanlanishi shu bilan izohlanadiki, ushbu kitob rus, gʻarbiy yevropalik va amerikalik tadqiqotchilar orasida katta muvaffiqiyat qozongan. Biz murojaat qilayotgan nashrga qoʻshimchalar kiritilgan, masalan, unda K.I.Kazeninning “Sintaksisning hozirgi zamon rasmiy nazariyalari, grammatik anaforani taqqoslash” nomli sharhi keltirilgan. Bu oʻrinda, nazarimizda, generativ grammatika va formal sintaksisning muqobil nazariyalari oʻrtasidagi farqlarni koʻrsatish muhim hisoblanadi.

A.A.Kibrik va V.A.Plungyaning fikricha, formallikni funktsionallikka qarshi qoʻyish ikkinchi darajali masala emas. Funktsionallilik til faktlarini taqdim qilishning formal apparati bilan, va ayni paytda ularni amal qilish paytida tushuntirish bilan qiziqadi.

A.A.Kibrik va V.A. Plungyan taʼkidlaganidek, radikal funktsionalistlardan farqli ravishda, formal-strukturalistlar asosiy eʼtiborni grammatikaga qaratadi va unga boshqa hodisalarning (masalan, matn, diskurs va boshqalarning) muqobili deb qaramaydi. Shu munosabat bilan taʼkidlash mumkinki, Van Valin tilni faqat grammatikaga taalluqli deb hisoblamaydi. Vaholanki, N.Xomskiy buning aksini ilgari suradi, uning fikricha, til grammatikaga tenglashadi. Shuningdek “klauza” atamasiga taʼrif beriladi. Klauzalar bir necha “qatlamlardan” iborat. Birinchi qatlam – bu markaz (core) va periferiya (periphery). Markazning ichida, oʻz navbatida, yadro – oʻzak (nucleus) ajralib turadi. Oʻzak gapning predikatidir. Periferiyaga esa klauzaning qolgan elementlari -no - argumentlar, yaʼni sironstantalar kiradi. Klauza peritsentral pozitsiyani oʻz ichiga olishi mumkin (pre – core slot, PCS). Peritsentral pozitsiyaga, masalan, qator tillardagi soʻroq soʻzlar kiradi, misol uchun, oddiy jumla klauzadan iborat boʻlib, alohida pozitsiyani, koʻpincha chapini oʻz ichiga olishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarni batafsil tushuntirish uchun biz quyida Van Valin tomonidan tuzilgan jadvalni keltiramiz:



Ushbu jadvalda komponentlar proyeksiyasi va operatorlar proyeksiyasi yaqqol koʻrsatilgan.

“E.Sepirning lingvistik konsepsiyasining oʻziga xosligi, uning til haqidagi fanni rivojlantirishdagi ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi bobida E.Sepir lingvistik konsepsiyasining oʻziga xosligi, uning tillar tahlili fani va uslubiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi; E.Sepirning tilshunoslikka fan sifatida

qarashlari o'rganiladi; E.Sepirning lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistikani rivojlantirishga qo'shgan hissasi baholanadi; E.Sepir ta'limotining asosiy qoidalari aniqlanadi; E.Sepir psixolingvistik konsepsiyasida til va tafakkurning o'ziga xosligi ta'riflanadi.

“*E.Sepir tilshunoslikning fan sifatidagi mavqeyi to'g'risida*” deb nomlangan birinchi faslda ta'kidlanishicha, E.Sepir o'z tadqiqotlarida tilshunoslik fan sifatida fundamental o'rinni egallashi va muhim markaziy ahamiyatga ega ekanligi haqida yozgan. Amerikalik olimning fikricha, tilni o'rganmasdan va uning qonuniyatlarini tushunmasdan turib, ijtimoiy fanlarning ham, tabiiy fanlarning ham rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha boshqa fanlar u yoki bu darajada tilshunoslikning metodologiyasi, amashunoslik va tilshunoslik ma'lumotlariga tayanadi. E.Sepirning fikricha, tilshunoslikdan boshqa bironta fan muayyan tilning, ayniqsa, boshqa tillarga qiyoslaganda, tarixan qanday rivojlangani va evolyutsiyaga erishgani to'g'risidagi savolga javob bera olmaydi. Ayni paytda til haqidagi bilimlar, aksincha, turli tarixiy davrlarda turli tillarda so'zlashgan u yoki bu xalqlar turmushining o'ziga xosligini chuqur tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot sohasi sifatida tilshunoslik murakkabligi bilan ajralib turadi. E.Sepirning fikricha, kelajakda umumiy muammolarni hal qilish va ilmiy taraqqiyot uchun tilshunoslik hamda psixologiyani birlashtirish samarali bo'ladi. Amerikalik olim tilshunoslikning strukturaviy psixologiya uchun alohida muhim ahamiyatini anglagan, chunki faqat til madaniy modellardan ajralgan holda rivojlanadi. Boshqacha aytganda, tilshunoslik madaniyatning “psixologik geografiyasini” yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tilshunoslik strukturaviy tadqiqotlarni olib borishda muhim ahamiyatga ega, chunki tilni modellashtirish o'ziga yo'naltirilgan bo'lib, lingvistik bo'lmagan modellarga bog'liq emas.³⁸

Falsafa tilni ham o'rganadi, chunki lingvistik jarayonning o'zini tanqidiy tushunish uchun u o'zining tilga oid me'yorlaridan uzoqlashishi, mantiqni grammatikadan ozod qilishi va simvolizmga “sho'ng'ishi” muhimdir. Tilshunoslar faylasuflarga lingvistik atamalarni talqin qilish va til taraqqiyoti qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tilshunoslik o'z tahlil usullarini bevosita fiziologiya va fizika kabi tabiiy fanlardan o'zlashtirgan.

Fonetika ham tadqiqotlarning aniqligini talab qiladi, chunki nutq organlarining fiziologiyasini akustikada hisobga olish lozim. Insonning nutqiy xulq-atvori tafsilotlarini o'rganuvchi tilshunoslar doimiy ravishda tabiiy fanlarga murojaat qilishi kerak. O'z navbatida, lingvistik tadqiqotlar akustik va fiziologik muammolarni ko'rib chiqishga imkon beruvchi ma'lumotlarni taqdim etadi.³⁹

Tilshunoslik til hodisasini o'rganadi va ayni paytda biologiyani ham hisobga oladi: haqiqiy lingvistik xatti-harakatlar maxsus fiziologik jarayonlarning mavjudligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, muntazam va birxillashtirilgan til jarayonlari, shubhasiz, odamning u mansub bo'lgan jamiyat madaniyati bilan belgilanadigan erkinroq va oldindan belgilanmagan xatti-harakatlar normalari bilan solishtirgan holda o'rganiladi. Shu bilan birga, tovush o'zgarishining

³⁸ Sapir E. The unconscious patterning of behavior in society // The unconscious: A symposium. – N.Y., 1927. – P. 182.

³⁹ Sapir E. Culture, genuine and spurious // Amer. j. of sociology. – Chicago, 1924. – Vol.29. – P. 410.

muntazamligini faqat shartli ravishda biologik avtomatizm bilan solishtirish mumkin. Buning sababi shundaki, til boshqa madaniy hodisalardan farqli o'laroq, inson xatti-harakatlarining sotsiologik turlariga kiradi.

Til hatto ibtidoiy jamiyatlarda ham madaniyatni saqlaydi va avloddan avlodga uzatib keladi: shifobaxsh afsunlar, ibodatlar, maqollar, qo'shiqlar, folklor afsonalari – bularning barchasi shartli ravishda doimiy lingvistik shakllar – madaniyat xazinalaridir.

Aslida “yuqori” va “past” madaniyatlar o'rtasidagi farqlar verbal nufuzlilik an'analari tufayli nihoyatda bo'rttirilgan. Farqlar insonning o'zi mansub bo'lgan madaniyat bilan munosabatlari psixologiyasida emas, aksincha, uning tashqi shakllari va mazmunida ifodalandi. Shunday qilib, E.Sepir o'z asarlarida ta'kidlashicha, tilshunoslikning fan sifatidagi mavqeyi fundamental o'rinni egallab, muhim markaziy ahamiyatga molik hisoblanadi.

“E.Sepirning lingvistik tipologiya, fonologiya va sotsiolingvistikani rivojlantirishga qo'shgan hissasi” deb nomlangan ikkinchi faslda ta'kidlanishicha, amerikalik lingvist, antropolog va psixolingvist E.Sepir tilshunoslik, fonologiya, lingvistik tipologiya va sotsiolingvistikani rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. U XX asrning birinchi yarmidagi taniqli va obro'li tilshunoslardan bo'lib, tilshunoslikda inqilobiy kashfiyotlar qilgan. Ayni paytda uning tadqiqotlari olim vafotidan so'ng ko'p yillar o'tgach, keng ko'lamda tan olingan. Shimoliy Amerikaning tub aholisi tillarini o'rganar ekan, olim ularning genetik aloqalari haqida ko'p sonli farazlarini ilgari surgan va bu AQShdagi deskriptivizmni yangi bosqichga ko'tarishga, keyinchalik tilshunoslikda generativistik va funksional yo'nalishlarni shakllanishiga xizmat qilgan. E.Sepir keyinchalik B.L.Uorf tomonidan bayon qilingan bo'lajak “lingvistik nisbiylik faraziga” oid g'oyalarni ilgari surgan. Sepir-Uorf gipotezasi nomini olgan nazariya tilning hodisa sifatida kelgusi psixologik tahlili uchun aniq metodologik mo'ljallarni belgilab bergan. Yangi mo'ljallar insonning tafakkur qilish va xatti-harakatlari jarayonlarida biologik emas, ko'proq ijtimoiy ko'rsatkichga tayanish imkonini berdi. Ma'lum bo'lishicha, insonning aqliy darajasi bilan bog'liq psixodiagnostik ko'rsatkichlariga uning biologiyasi yoki irqiy mansubligi emas, balki kishi tomonidan muayyan madaniyatda tarbiyalanishi doirasida o'zlashtirilgan fikrlash amaliyotlari ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik tilshunos o'zining “Til”⁴⁰ deb nomlangan maqolasida tilning mohiyatini va funksional jihatlarini batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, nutq inson ongli faoliyatining o'ta muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bilim, tajriba to'plash, madaniyatni keyingi avlodlarga yetkazishda til muhim ahamiyat kasb etadi. Til birxillashtirish va ijtimoiylashtirish funksiyalariga ega, ayni paytda u inson individualligini rivojlantirishga va tashqi dunyoda namoyon bo'lishiga yordam beradi. E.Sepirning fikricha, tilga oid odatlar shaxsning yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatlarining ongsiz ko'rsatkichlari sifatida muhim ahamiyatga ega. Har qanday xalq inson tilining psixologik ahamiyatini his qilishi bejiz emas.⁴¹

⁴⁰ Сепир Э. Язык. – М., 1934. – XX. – 223 с.

⁴¹ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – С. 234.

E.Sepir tabiiy tilni Sun'iy til bilan almashtirish imkoniyatiga salbiy munosabatda bo'ladi, chunki ikkinchisida individual ijtimoiy va psixofizik tajriba mavjud emas. Shuningdek, undan foydalanadigan xalqning tarixi ham hisobga olinmaydi. Olimning Sun'iy xalqaro tillar ko'plab ijtimoiy aloqa muammolarini hal qilishda yordam berishi mumkinligi haqidagi g'oyasi adolatlidek tuyuladi. Ammo ular bunga qodir emas, chunki ular muayyan xalqning manfaatlarini ifodalay olmaydi. Sun'iy tilni yaratishning o'rniga, E.Sepir ta'kidlaganidek, yuqori darajada rivojlangan xorijiy tillarning birontasiga, xususan, ingliz, fransuz, nemis va rus tiliga xalqaro til maqomini berish mumkin. Tajriba olimning ushbu fikri adolatli ekanligini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda ingliz tili de facto xalqaro til vazifasini bajarmoqda.⁴² A.E.Kibrik o'zining "E.Sepir va zamonaviy tilshunoslik" maqolasida shunday deb yozadi: "Sepir o'z davrining farzandimikan? Agarda shunday bo'lganida, uning g'oyalari izchil rivojlanishini kutish mumkin edi, ammo ko'rib turganimizdek, vaziyat aslo bunday emas. Go'yo Sepir bizga o'tmishdan emas, kelajakdan kelayotgandek taassurot qoladi, va uning tilga nisbatan umuminsoniy qarashi – bu tilshunoslikning istiqboldagi marralariga ishoradir"⁴³.

"E.Sepir ta'limotining asosiy tushunchalari" deb nomlangan uchinchi faslda E.Sepirning tilning "asosiy muammosi" – tilning kelib chiqishi muammosiga qarashlari tizimi tahlil qilinadi. Olim til hodisasi tabiati va mohiyatini aniq tavsiflab bergan, ayni paytda tilning paydo bo'lishiga erishish uchun ularga rioya qilinishi shart bo'lgan ayrim muhim shartlarni belgilagan. Olim tilning kelib chiqishi muammosini o'rgana boshlagan paytdanoq hozirgi zamon tafakkuriga ham mos keladigan lingvistik tahlildan foydalangan. Uning tilning kelib chiqishi haqidagi tushunchasi esa hamon o'zining diagnostik va evristik ahamiyatini saqlab qolgan. 1921 yilga kelib, E.Sepir "Til. Nutqni o'rganishga kirish" kitobini chop etish orqali u Tyuring turidagi tahlil darajasiga siljishni amalga oshirdi,⁴⁴ boshqacha aytganda, u tilning kelib chiqishiga doir aniq belgilanmagan muammodan chetlanib, e'tiborini hal qilish mumkin bo'lgan tilga oid o'zgarishlar va variatsiyalar muammosiga qaratdi. Shu bilan birga, E.Sepir tilning tabiatini tahlil qilar ekan, mantiqiy tahlil orqali aniqlagan tilning kelib chiqishiga oid eng muhim masalalarni qisqacha bayon qildi.

Hozirgi paytda til evolyutsiyasi tadqiqotchilari shu fakti hisobga olishlari kerakki, E.Sepir, o'z ixtiyoridagi ma'lumotlar bazasi yoki o'ta cheklangan, yoki umuman mavjud bo'lmagan holda, til tavsifi va identifikatsiyasini bundan yuz yil avval aniqlashga muvaffaq bo'lgan. E.Sepir til muammosini faqat uning kommunikativ kontekstida yaxlit holda ko'rib chiqishni mantiqiy tahlil qilishga tayangani holda, insonning tilga oid muloqot tizimining paydo bo'lishi va tuzilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning barqaror xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldi.

Hozirgi vaqtda til evolyutsiyasi fanlararo ma'lumotlar bazalari va lingvistik ta'limotlarning barcha jihatlarini: rasmiy, mujassamlashgan, ijtimoiylashgan va

⁴² Ibid. – C. 247.

⁴³ Кибрик А.Е. Э.Сепир и современное языкознание. – М.: Прогресс, 1993. – С. 9

⁴⁴ Floridi, L. The Turing Test and the Method of Levels of Abstraction. In Cooper, S. B. & J. van Leeuwen eds., Alan Turing: His Work and Impact. – New York: Elsevier, 2013. – P. 602.

madaniylashgan jihatlaridan foydalangan holda faol ravishda o'rganilayotgani ijobiy holatdir. Ammo buni amalga oshirish qanchalik qiyin bo'lmasin, tilning kelib chiqishi va evolyutsiyasi muammosiga har tomonlama mantiqiy tahlil orqali qarashga harakat qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shubhasiz, E.Sepirga taqlid qilish mushkul, ammo u bunday yondashuvning samarali ekanligini isbotladi va shu sababli bundan foydalanish kerak.

E.Sepir tilning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor berib, shartli, ixtiyoriy tarzda talaffuz qilingan fonemalar va ularning ekvivalentlarini turli yo'llar bilan ifodalashda so'zlarning ramziy assotsiatsiyalarini tahlil qilishga kirishgan. U tilning elementlari, tajribani bildiruvchi belgilar individual tajribalarning o'zi bilan emas, balki butun guruhlar, chegaralangan tajriba toiflari bilan bog'langan bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Faqat shu tarzda kommunikatsiyaga erishish mumkin, zero, birgina tajriba individual ongda saqlanadi, shu bois amalda uni uzatib bo'lmaydi. Uni xabar qilish uchun ushbu tajribani toifaga kiritish kerak va u hamjamo tomonidan o'xshashlik deb qabul qilinadi.⁴⁵ Aytish lozimki, E.Sepir va unga zamondosh bo'lgan "antropologik tilshunoslar" avlodi tilning uzoq vaqt inkor qilib kelingan ijtimoiy jihatini tahlil qilishda birinchilardan bo'lgan, vaholanki, hali eramizdan avvalgi III asrdayoq Chjuan-tszi ta'kidlashicha, yerda yurish orqali hosil bo'ladigan iz kabi, buyumlar ularga nisbatan doim qo'llanilgani tufayli o'z nomlariga ega bo'ladi.⁴⁶

Shu tarzda, E. Sepirning tilning "asosiy muammosi" – uning kelib chiqishiga oid qarashlari tizimi shuni namoyon qiladiki, olim til hodisasining tabiati va mazmunini aniq tavsiflashga muvaffaq bo'lgan, ayni paytda, til paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan ayrim muhim shartlarni belgilab bergan.

"*E.Sepirning psixolingvistik konsepsiyasida til va tafakkur*" deb nomlangan to'rtinchi faslda qayd etilishicha, E.Sepirning psixolingvistik konsepsiyasida til va tafakkur o'zaro zich bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Til – bu shunchaki tafakkurdan mustaqil ravishda amal qiluvchi rasmiy vositalarning majmuasi emas. Bu yagona psixologik jarayon bo'lib, uning ikkita qirrasini bor. Olimning yozishicha, nutq oqimi shunchaki ongning ichki ma'nosi bilan izohlanib qolib, unga ergashmaydi, balki ko'p holatlarda unga parallel bo'ladi, xususan, aqliy amaliyotlar ma'lum obrazlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi, mulohazalar esa qator holatlarda mavhumliklarga va ularning o'zaro aloqalariga asoslanishi mumkin. Individual tafakkur muayyan individni jamiyat bilan bog'lovchi tilga bog'liq bo'ladi. Psixologik nuqtayi nazardan, murakkabligi va tildan tilga o'tish oqibatlariga ko'ra uni hisob yuritishning bir tizimidan ikkinchisiga o'tishga qiyoslash mumkin. Til ramziy ifodalanishning umumlashtirilgan darajasida tafakkurning faqat tashqi ifodalanishi hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, til o'zidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan fikrga qo'yilgan oddiy yorliq emas, u fikrning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etadi.⁴⁷ E.Sepir tilning yangi bilimlar

⁴⁵ Sapir, E. Language. An introduction to the study of speech. – New York. Harcourt, Brace. Reprint: Dover Books on Language, 2004. – P. 21.

⁴⁶ Степанов И.С. Чжуанцзы / Пер. Позднеева Л.Д. – М.: Пальмира, 2017. – С. 82.

⁴⁷ Сепир Э. указ.соч. – С. 57.

olinishini ta'minlash xususiyati tufayli, uning evristik ekanligini tan olish kerak, deb hisoblagan. Til ijodiy qurol sifatida insonga faqat empirik kuzatuvlar davomida sodir bo'ladigan jarayonlardan tashqari ko'proq narsalarni anglashga yordam beradi. Til odamga o'zi hech qachon ko'rmagan, shuningdek, hatto mavjud bo'lmagan obyektlar (xususan, afsonalardagi jonli mavjudotlar) haqida bilim olish imkonini beradi va til tufayli inson o'z tajribasi chegaralarini doimiy ravishda kengaytiradi. E.Sepirning fikricha, shaxsan bitta filni ko'rgan odam o'n, yuz, minglab fil, ularning podasi, ikki-uch mavjudotning birga yashashi va hokazolar haqida mulohaza yurita oladi, deb hisoblagan. Bu esa shuni anglatadiki, til "lingvistik" bilimlarni ifodalaydi.

S.Linker insonning tilni o'zlashtirish qobiliyatini "instinkt" degan xulosaga keladi. Boshqacha aytganda, odamning so'zlashish qobiliyatini uning yura olish qobiliyatiga tenglashtirish mumkin. E.Sepir, shubhasiz, generativistlar va S.Linker qarashlari bilan tanish bo'lmagan, ammo bu kabi mulohalarga asos bo'lgan nazariyalarni tushungan. Olimning uqtirishicha, til faqat insondagina mavjud bo'lib, u tufayli fikr va his-tuyg'ular instinktiv tarzda emas, balki ramzlar tizimidan ataylab va ongli ravishda foydalanish orqali uzatiladi.

Individual fikrlash muayyan individni jamiyat bilan bog'lovchi tilga tayanadi. Psixologik nuqtayi nazaridan, bir tildan ikkinchisiga o'tish – birmuncha murakkab jarayon bo'lib, uni hisobning bir geometrik tizimini ikkinchisiga alamashtirishga qiyoslash mumkin. E.Sepirning fikricha, barcha tillarning umumiy tavsiflari ular aynan bitta dunyoni ifodalashi bilan bog'liq, ulardagi farqlar esa tajriba elementlarni belgilashning bir xil bo'lmagan rasmiy usullari bilan izohlanadi. Olimning fikricha, nutq oqimi shunchaki ongning ichki mazmuni bilangina izohlanib, unga ergashmaydi, balki ko'p vaziyatlarda unga parallel bo'ladi, xususan, aqliy amaliyotlar muayyan obrazlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq va diqqat markazida qator holatlarda e'tibor faqat mavhum ma'nolar va ularning o'zaro aloqasiga – fikrlashga qaratilishi mumkin. Til ramziy ifodalanishning umumlashtirilgan darajasida tafakkurning faqat tashqi ifodalanishi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**E.Sepirning nutqqa oid faoliyat nazariyasini etnogarfik lingvistika va gumanizm nuqtayi nazaridan tahlil qilish**" deb nomlangan uchinchi bobida E.Sepirning nutqqa oid faoliyat nazariyasi etnogarfik lingvistika va gumanizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi; E.Sepir tadqiqotlaridagi nutqqa oid faoliyat tadqiq etiladi; E.Sepirning etnografik lingvistikada g'oyalarining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqildi; E.Sepirning lingvistik ta'limotida gumanizm falsafiy va amaliy universalisiya sifatida tavsiflandi.

"*E.Sepir tadqiqotlaridagi nutqqa oid faoliyatning tadqiq qilinishi*" deb nomlangan birinchi faslida ta'kidlanishicha, E.Sepir tadqiqotlaridagi nutqqa oid faoliyat batafsil va har tomonlama o'rganilgan. E.Sepir o'zining "Nutq shaxsning xususiyati sifatida"⁴⁸ deb nomlangan maqolasida ijtimoiy va individual nutq o'rtasidagi nisbatni batafsil o'rganib chiqadi. Ayni paytda u lingvopsixologiyaning nutq darajalarini belgilash kabi muhim masalaga e'tibor qaratadi va shu asosda nutqiy odob turilariga oid tizimni/tasnifni ishlab chiqadi. Bunday tasnifning maqsadi til shaxsning tilga oid va ijtimoiy o'ziga xosligiga qanday ta'sir ko'rsatishini

⁴⁸ Sapir.E. Speech as a personality trait // Amer. j. of sociology. – Chicago. 1927b. – Vol. 32. P. 892-905.

aniqlashdan iborat bo'lgan. So'ngra muallif nutq darajalarini sanab o'tadi: a) odamning ovozi va uning rivojlanishi bu o'z ichiga: intonatsiya, ritm va ovoz tezligini qamrab oladi; b) uslub; v) talaffuz; g) leksik, stilistik va tilning boshqa birliklari.⁴⁹

Amerikalik tilshunosning yozishicha, til har doim bir paytning o'zida ham individual, tarixiy va makonga oid o'lchamlarda o'zgarib boradi. Har qanday so'zlovchi nutqning o'ziga xos xususiyatlariga ega, odamlardagi dialektlar ham bir xilda ifodalanmaydi. E.Sepir jahon tilshunosligida birinchi bo'lib "tilga oid dreyf" atamasini kashf qilgan va bunda u tilning mavjudligi mohiyatini tushungan. Tilga oid *dreyf* tushunchasi tashqi ta'sir ostida harakatlanishni anglatadi. Ushbu atama, E.Sepirning fikricha, tilning mavjudligini ifodalaydi. E.Sepirning faoliyatida so'zlovchilar tomonidan jamiyat tomonidan o'rnatilgan odob-axloq qoidalarining odatiy holatlaridan ma'lum bir og'ishlarni nazoratsiz tanlashi natijasida paydo bo'ladigan til dreyfning umumlashtirilgan ta'rifi muhim o'rin egallaydi.⁵⁰

E. Sepir oddiy misol orqali, nutqda, hatto adabiy til me'yorlariga zid bo'lsa ham, nutqda til dreyfning ifodalanishini ko'rsatib beradi: ingliz tilida so'zlashuvchilar quyidagi shakldan foydalanishga moyil bo'ladi: "Who did you see?" (Siz kimni ko'rdingiz?),⁵¹ ayni paytda, adabiy me'yor "whom" shakli qo'llanilishini talab qiladi. Bu uchta omil bilan izohlanadi:

1) "who?" va "whom?" so'zlariga psixologik o'xshash bo'lgan boshqa nisbiy va so'roq olmoshlari (masalan, that, what, which) subyekt va obyekt shakllarida farqlanmaydi;⁵²

2) so'nggi ikkita shakl kishilik olmoshlariga ko'ra farqlanadi, bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi va bu gapdagi turli pozitsiyalar qayd qilinishi bilan izohlanadi: subyektga oid bo'lgan "who" gapning boshida qo'llaniladi;⁵³

3) ingliz tili an'anaviy ravishda ularga ravishlar va so'roq olmoshlari kiradigan emfatik tarkibiy qismlarni o'zgartirishga moyil emas. E.Sepir adolatli ravishda shuni ta'kidlaydiki, odatda, "Who did you see?" deb qo'llashni afzal ko'radigan savodsiz kishilar tilshunos olimlardan farqli ravishda haqiqiy til dreyfini intuitiv tarzda his qiladi.⁵⁴

Bundan tashqari, olim nutq o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar jamiyatining lingvistik va nolingvistik xususiyatlarini o'z ichiga olgan og'zaki va yozma matnli xabarlarga asoslanadi, deb yozgan. Nutqda odamlarning dunyoqarashi va tafakkur turi, milliy va madaniy kodlarning xususiyatlari namoyon bo'ladi. Amerikalik tilshunos shuni ko'rsatdiki, "nutq uslubi" madaniyat turi bilan belgilanadi, nutq esa samarali muloqot uchun bir xil darajada muhim bo'lgan og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni ifodalaydi. E.Sepir til va nutqning fiziologik va instinktiv parametrlarga bog'liq emasligi, ular, avvalo, madaniyat vazifalari va jamiyat taraqqiyoti evolyutsiyasiga yo'naltirilganligini qayd etgan.

⁴⁹ Указ. соч. Опарина Е.О. – С. 83

⁵⁰ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии: Пер. с англ. М.: 1993б. – С. 144

⁵¹ Указ. соч. Опарина Е.О. – С. 86.

⁵² Ibid. – С. 86

⁵³ Ibid. – С. 147.

⁵⁴ Ibid. – С. 148.

“*E.Sepirning etnografik lingvistikasi*” deb nomlangan ikkinchi faslda ta’kidlanishicha, E.Sepirning etnografik lingvistikasi nafaqat AQSh uchun, balki butun dunyo uchun noyob hodisa bo’lgan. U Amerika hindularining hayoti, turmush tarzi, madaniyati va tillarini batafsil o’rgangan birinchi mutaxassis bo’lib, nafaqat AQShda, balki Kanadada ham ushbu mavzuda ish olib borgan. Olimning asosiy xulosasi shundan iborat ediki, tilshunos dala tadqiqotlari yordamida tillarni o’rganishga va so’ngra o’z faoliyati natijalarini aniq tasvirlab berishga majburdir. Uning hindu tillarini bilishi (chinuk vishram, takelma, yana, payute) dala tadqiqotlarini muvaffaqiyatli olib borishga yordam berdi. Edvard Sepirni haqli ravishda dala ishlarining eng buyuk ustalaridan biri, deyish mumkin. U 14 ta ekspeditsiyada qatnashgan, turli til oilalariga mansub 17 dan ortiq hindu tilini, shuningdek, G’arbiy Afrikaning “jabo” tilini tavsiflab bergan. Olim Shimoliy Amerika tillarining genetik tasnifini tuzib, 6 dan 12 tagacha til oilalari aniqlagan (oldingi tasnifda ularning soni 55 tadan ortiq edi). E.Sepirning bu sohadagi aksariyat tadqiqotlari nafaqat hududiy, balki umumiy nazariy ahamiyatga ega: muallif hindu tillari materiallaridan foydalanib, til darajalarining o’zaro ta’siri, tillarning rivojlanish qonuniyatlari va ularning aloqalari haqidagi farazlarni, tipologiya masalalarini shakllantirgan va sinovdan o’tkazgan. Uning 200 dan ortiq asari hindu tillarini o’rganishga bag’ishlangan bo’lib, ular umumiy tilshunoslik va Shimoliy Amerikadagi til madaniyatini o’rganishda katta ahamiyatga ega.

“Markaziy va Shimoliy Amerika tillari” maqolasida E.Sepir amerikalik tabiatshunos va Shimoliy Amerikadagi (Meksikadan shimolda) hindu tillarining birinchi keng qamrovli tasnifi muallifi J.V.Pauell (1834-1902) bilan bahslashadi. E.Sepirning ta’kidlashicha, J.V.Pauell mustaqil deb hisoblagan ayrim til oilalari o’rtasida aniq fonetik, strukturaviy va lug’aviy o’xshashliklar mavjud bo’lib, ular ba’zilari chuqur xarakterga ega va umumiy kelib chiqishga taalluqli bo’lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, E.Sepir Amerika hindu tillarini 6 ta katta oilaga ajratadi (eskimoss-aleut, algonkin-vakash, na-dene, penutiy, xokans-siuans va atstek-tanoan).

Ushbu hududdagi hindu tillarining genetik tasnifi Shimoliy Amerika uchun qabul qilingan irq-larga bo’linishga ham, etnograflar tomonidan aniqlangan qabilalarning madaniy-areal guruhlariga ham mos kelmaydi. Bu tillar ajablanarli tarzda nihoyatda xilma-xil bo’lib, fonetik va morfologik chuqur farqlarga ega bo’lishi mumkin. Xususan, ularning ba’zilari juda oddiy konsonant tizimga ega, boshqalari esa, masalan, Alyaskaning atabaskan tilida 55 dan kam bo’lmagan undosh element mavjud. Shimoliy Amerika tub aholisi tillarining aksariyat qismi ohanglidir, ammo ba’zilarida bo’g’inlar orasidagi semantik va grammatik farqlarni ifodalashda ohang zarur element bo’lmay qolgan.⁵⁵ Tuzilishi jihatidan ko’plab hindu tillari polisintetik hisoblanadi – ular bir so’z ichida ko’plab o’ziga xos tushuncha va grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Xususan, *xokans-siuans tillari* asosan agglutinativdir; *penutiy tillarida* rasmiy ma’noga ega bo’lgan qo’shimchalar

⁵⁵ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – С. 413.

qo‘llanadi, shuningdek, ko‘plab ichki tub o‘zgarishlarga ega; *atstek-tanoan tillari* E.Sepir tomonidan o‘rtacha polisintetik deb tavsiflanadi.

Til madaniyat va tafakkurdan ajralmasdir. Shu sababli uni to‘g‘ri tushunish uchun unga chuqur kirib borish kerak. Olim o‘zining ko‘plab etnografik asarlarida batafsil sinxron tavsiflovchi lingvistik tahlilni taqdim etgan bo‘lib, tilshunoslar hozir ham undan foydalanmoqda.

“*E.Sepirning “Til” monografiyasi uning ilmiy-tadqiqot faoliyatining yakuni sifatida*” deb nomlangan uchinchi faslda E.Sepirning 1934-yilda nashr qilingan “Til. Nutqni o‘rganishga kirish” kitobi batafsil tahlil qilingan. E.Sepirning qayd etishicha, uning maqsadi faktlar to‘plash bilan cheklanib qolmaydi, balki tilning umumiy masalalari bo‘yicha istiqbolli tadqiqotlar olib borishdan iborat. E. Sepirning ushbu kitobi 11 bob, tillar ko‘rsatkichi, A.Suxotin izohlari, tillarning izohli ko‘rsatkichi va mavzu ko‘rsatkichidan iborat. Quyida E.Sepir monografiyasining asosiy mazmunini qisqacha bayon etamiz.

Edvard Sepirning fikricha, inson nutqi – yurish yoki nafas olish kabi oddiy hodisa. Ammo ulardan farqli ravishda, inson nutqi jamiyat bilan bog‘liq. Edvard Sepir ta’kidlaganidek: “Agar yangi tug‘ilgan chaqaloqni o‘zi tug‘ilgan ijtimoiy muhitdan olib, uni yangi muhitga o‘tkazsangiz, u xuddi eski muhitdagi kabi yurish san‘atini egallaydi. Ammo uning nutqi o‘z muhitining nutqidan keskin farq qiladi. Nutq – bu inson faoliyati bo‘lib, biz bir ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga o‘tganimizda, farqlar hech qanday chegaralar bilan cheklanmaydi; Yurish tabiiy, instinktiv funksiyadir (albatta, u instinktning o‘zi emas), nutq esa – instinktiv emas, o‘zlashtirilgan, madaniy funksiyadir”.⁵⁶

So‘ngra “Nutq elementlari” tadqiq qilinadi. Bu yerda tovushlar nutqning dolzarb unsurlari emasligi ta’kidlanadi, ushbu mashhur iborani muallif ingliz tilidan olingan misollar bilan aniqlashtiradi. Mulohazalarning davomida nutqning birinchi haqiqiy elementi so‘zdir, deyiladi. E.Sepir “so‘z” nima ekanligini aniqlashdan oldin “sing” kabi so‘zlarni batafsil tekshiradi. “Gap shundaki, E.Sepir yozganidek, *sing* o‘ziga xos yarimta so‘z bo‘lib, asl o‘zak element holati bilan *singing* kabi turdagi o‘zgartirilgan so‘z holati o‘rtasida o‘zgarib turadi. Uning mazmunida umumlashtirilgan g‘oyadan tashqari narsa mavjudligini ko‘rsatadigan tashqi belgi bo‘lmasa-da, biz hali ham uning atrofida qo‘shimcha ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan tushuncha mavjudligini his qilamiz. Bunday so‘zni A formulasi bilan emas, balki A+ (0) formulasi bilan ifodalagan ma’qul. Biz *sing* ni A+(b) turiga kiritamiz, ammo bunda (b) ning yo‘qolganini nazarda tutamiz. So‘z bunday taassurot qoldirishi asossiz emas, zero tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi *sing* so‘zi dastavval A+(b) turidagi mutlaqo har xil so‘zlarga kirgan.⁵⁷ Ta’kidlanishicha, nutqning birinchi haqiqiy elementi ana shunday “so‘z” hisoblanadi. Singning so‘z ekanligini aniqlash uchun E.Sepir uni lingvo-etimologik jihatdan tahlil qiladi.

Bundan tashqari, “Til tovushlari” deb nomlangan bobda mumkin bo‘lgan tovushlarning cheksizligi qayd etilgan, ularni hosil qilishda artikulyatsiya organlarining ishtiroki, unli va undoshlarning artikulyatsiyasi haqida so‘z boradi,

⁵⁶ Сепир Э. Язык Введение в изучение речи / перевод. Сухотин А.М., – М-Ленинград, 1934. – С.6

⁵⁷ Ibid. – С. 23

tilning fonetik xarakteristikasi keltiriladi, tovushlarning ahamiyati belgilanadi, tovushlar va fonetik modellari taqdim etiladi. E.Sepirning yozishicha, agar tilda qaysi tovushlardan foydalanishini aniqlash bilan cheklansak, uning fonetik xususiyatlarini aniqlashning iloji bo‘lmaydi.

“Til tuzilishining turlari” deb nomlangan keyingi bobda tillarni tasniflash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Bu o‘rinda muallif tillarni shakllangan va shakllanmagan turlarga tasniflashni noto‘g‘ri va to‘liq emas deb yozadi. Buning sababini tasniflashda rasmiy jarayonlardan foydalanishda ko‘rsa bo‘ladi. Flektivlik va agglyutinativlik haqida qiziqarli fikrlar bildiriladi hamda bu muhim atamalarga aniqlik kiritiladi. Ijobiy yechimini topmagan masalalardan biri tillarning o‘zaro ta‘siri masalasidir. Shu sababli kitob muallifi tomonidan keyingi bobning “tillar bir-biriga qanday ta‘sir ko‘rsatishi” mavzusiga bag‘ishlangani o‘rinli. E.Sepirning ta‘kidlashicha, tillarning bir-biriga ta‘siri, asosan, bir yo‘nalishda rivojlanadi va bu taraqqiyotning madaniy, iqtisodiy, siyosiy darajasiga bog‘liqdir.

Umuman olganda, E.Sepirning til, irq va madaniyatga oid yuqorida biz qisqacha bayon qilgan, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan mulohazalari bu soha mutaxassislarini befarq qoldirmaydi va ularning ilmiy shuurini yangi nazariy-uslubiy ma‘lumotlar bilan boyitadi.

“E.Sepir lingvistik ta‘limotida gumanizm falsafiy va amaliy universalিয়া sifatida” deb nomlangan to‘rtinchi faslda ta‘kidlanishicha, tarixiy majburiy prinsip sifatida evolyutsion rivojlanib boruchi gumanizm g‘oyasi va umumiy taraqqiyot imperativi, shuningdek, gumanizm rivojlanishining dunyoqarashga oid va amaliy shakllari mavjuddir. E.Sepir uzoqni ko‘ra oluvchi amerikalik tilshunos bo‘lib, u o‘z lingvistik ta‘limotida gumanizmning kelgusi rivojlanishini ko‘ra bilgan, ayni paytda falsafiy va amaliy universalialarni o‘zlashtirish orqali tilshunoslarning professional kompetensiyalarini shakllantirishda uning kelgusi qo‘llanilishi uchun tegishli zaminni yaratgan. Amerikalik tilshunos olim tilshunoslik va pedagogikada gumanizm g‘oyalari va prinsiplarini yaratish imkoniyatlarini ko‘ra bilgan, ayni paytda, eng avvalo, dala tadqiqotlarini o‘tkazish, bunda tilni o‘rganilayotgan jamoaning turmushi, dunyoqarashi va madaniyatiga to‘liq kirishib ketish zarurliligini ta‘kidlagan. Buni, ayniqsa, yosh olimlar uchun dolzarb ekanligini qayd etgan. Gap shundaki, har qanday til madaniyati doimo gumanizmning u yoki bu shakliga ega bo‘lib, o‘z mavjudligining muayyan tarixiy davriga muvofiq insoniyat qadriyatlarini namoyon etadi. Ijtimoiy tizimni gumanizmsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, bu unga qadriyatlar va me‘yorlarni to‘plash, saqlash va avloddan-avlodga o‘tkazish, rivojlanish vektorlarini belgilash hamda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy inqirozlarni yumshatish imkoniyatini beradi. Qisqacha aytganda, E.Sepir lingvistikadagi gumanistik qarashlarni mashhur uchlik “til-tafakkur-madaniyat” shaklida ifodalab, ilmiy tadqiqotlarida ularning turli qirralarini ochib bergan.

“Edvard Sepirning merosi hamda zamonaviy tizimli va kognitiv lingvistikada uning dolzarblashuvi” deb nomlangan to‘rtinchi bobda Edvard Sepirning merosi hamda zamonaviy tizimli va kognitiv lingvistikada uning dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi tadqiq qilinadi; E.Sepir asarlarining amerika deskriptivizmi rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati belgilangan; E.Sepir merosining Kanada lingvistikasida va lingvistik antropologiyadagi merosi tavsiflangan;

kognitiv jarayonlarning lingvistik nisbiylik farazida ifodalanishining o'ziga xosligi ochib berilgan; E.Sepir tadqiqotlarining boshqa tillarga tarjimasi yoritilgan.

“E.Sepir asarlarining amerikancha deskriptivizm rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati” deb nomlangan birinchi faslda qayd qilinishicha, E.Sepir tadqiqotlari amerika deskriptivizmi rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi hamda ushbu yo'nalishdagi ilmiy tafakkur rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi. E.Sepir faoliyat yuritgan paytlarda amerikancha tilshunoslik vujudga kelmagani, zero, nufuzli tilshunoslik maktablari bo'lmaganligiga qaramay, olim tizimli tilshunoslikda bo'lajak amerikancha deskriptiv lingvistikaning asoschilaridan biri bo'lgan. E.Sepirning fikricha, til ijtimoiy hodisa va xalqning tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi. U tilni inson faoliyati namoyon bo'lishining boshqa shakllari, masalan, madaniyat bilan taqqoslagan. Olimning fikricha, til tuzilishi va madaniyat o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik yo'q, ammo leksika madaniyat bilan izohlanadi. E.Sepir tomonidan olib borilgan tadqiqotlar etnolingvistikaning shakllanishi asosini tashkil etgan va shu tufayli tilning xalqlar madaniyatida namoyon bo'lishi mahalliy urf-odatlar va mentalitetni hisobga olgan holda tadqiq qilinishiga turki berilgan. Olim til va madaniyat aloqasini tafakkur kategoriyasi orqali ko'rib chiqqan va shunday xulosaga kelganki, tafakkurda tashqi olamning butun rang-barangligi yagona mantiqiy konseptlari bilan aks ettirilmaydi, ammo til shakllari tilshunoslik voqeligini birdek taqsimlamaydi. Bu esa tafakkurning ko'p sonli shakllari va normalari, demak, xatti-harakatlar me'yorlari paydo bo'lishiga olib keladi. E.Sepir ilmiy jamiyatga tillarning morfologiyasining har xil turlari asosida ularning mualliflik tasnifini taqdim qilgan (unga o'sha paytlarda umumqabul qilingan, agglyutivativ, flektiv, ajralgan va tub tillarni qamrab oluvchi tasnif ma'qul kelmagan). Uning fikricha, har qanday til rasmiylashtirilgan bo'ladi, shu sababli olim ma'lum tilda rivojlangan formal jarayonlarga tayangan. E.Sepir tasnifida ularda tillarning turlicha tushunchalar, munosabatlarning texnik ifodalanishi va grammatikada sintezlashuviga ko'ra turlarga ajratilishi kuzatiladi. E.Sepirning hindularning tillari bilan olib borgan tadqiqotlari kelgusida AQShda sinxron deskriptiv lingvistik tahlilning rivojlanishini rag'batlantirdi. U ko'plab fonologik masalalarni ko'tarib chiqdi, ular keyinchalik fonetika muammolarining fonemikadan farqlanishiga olib keldi.

“E.Sepir – lingvistika va lingvistik antropologiya tadqiqotchisi” deb nomlangan ikkinchi faslda E.Sepir Kanada lingvistikasida va lingvistik antropologiyasida ulkan meros qoldirgani, u hozirgi zamon fani uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblanishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

1910-yildan 1925-yilgacha amerikalik olim Ottava shahrida ishlagan va u yerda Kanada milliy muzeyining geologik inspeksiyasi antropologiya bo'limini boshqargan.

Ushbu tadqiqot ishida, yetakchi tilshunos olimlarning tadqiqot natijalari, E.Sepirning umumiy ilmiy faoliyati, Kanadadagi lingvistik antropologiya standartlarini institutsionallashtirish va professionallik darajasini oshirishdagi o'rni haqidagi turli fikrlar o'rganildi. Kanadalik olimlarning ilmiy ishlari ushbu dissertatsiyada E.Sepirning Kanada tilshunosligi va antropologiyasidagi merosini chuqur o'rganish imkonini berdi. E.Sepir aynan Kanadada o'zining ko'plab mashhur

asarlarini, jumladan, “Amerikaning aborigen madaniyatida vaqt perspektivasi” (1916) va “Til. Nutqni o‘rganishga kirish” (1921) asarlarini chop etgan, unga mamlakatning tub xalqlari bilan faol dala ishlari olib borish uchun jiddiy imkoniyatlar yaratilgan, bu esa pirovardida tillarning o‘ziga xos tipologik tasnifini yaratishga imkon bergan. 1984-yilda E.Sepirning yubileyi munosabati bilan amerikalik va kanadalik mashhur tilshunos olimlar ishtirok etgan konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjuman materiallari ikkita to‘plamda nashr etilgan bo‘lib, ularda ma’ruza tezislari, bibliografik ma’lumotlar, E.Sepirning do‘stlari, hamkasblari va shogirdlarining xotiralari o‘rin olgan. Ushbu ikki to‘plamni tuzgan taniqli kanadalik olim E.Kerner E.Sepir asarlarining noaniq talqinini baholashda bo‘shliq borligi haqida afsus bilan yozgan. Shuningdek, E.Kerner quyidagicha fikr bildirgan: “...E. Sepir g‘oyalarining mashhurligi va ularga bo‘lgan talab uning ijodini chuqur o‘rganishga olib kelmadi, kanadalik tilshunoslar esa, avvalambor, o‘z asarlarini salmoqli qilish maqsadida uning asarlariga murojaat qilishdi, shu sababli ularning tadqiqotlarida ko‘pincha E.Sepirning kontekstidan yulib olingan havolalar uchraydi”.⁵⁸

“*Lingvistik nisbiylik gipotezasida kognitiv jarayonlarning ifodalanishi*” deb nomlangan uchinchi faslda E.Sepirning lingvistik nisbiylik gipotezasi ustida olib borgan ishlari (Sepir-Uorf gipotezasi) ushbu farazning boshqa olimlar tomonidan ifodalanishidan ancha avval boshlangani yoritilgan. Mohiyatan, E.Sepir ushbu g‘oyaning keyingi rivojlanishi uchun asos yaratgan, va u keyinchalik B.Uorfnig ilmiy tadqiqotlari natijalari bilan takomillastirildi va to‘ldirildi. Ammo olimlar gipotezani keyinchalik ilmiy adabiyotlarda paydo bo‘lgan shaklda ishlab chiqish bilan shug‘illanmagan. Biroq mazkur tilshunoslarning qarashlari keyinchalik Sepir-Uorf gipotezasining qat’iy va yumshoq versiyalarini shakllantirishga imkon berdi. Qattiq versiyaga ko‘ra, til tafakkurni belgilaydi, shu sababli kognitiv kategoriyalar lingvistik kategoriyalar tomonidan o‘rnatiladi va cheklanadi. Ikkichi farazga ko‘ra, tafakkur va til kategoriyalari nolingvistik harakatlarning an‘analari va ayrim shakllariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

E.Sepirning fikricha, til turli xalqlarning dunyoqarashini to‘g‘ri anglash kalitidir. Uning qayd etishicha, grammatikadagi tub farqlar tufayli tarjima jarayonida hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydigan darajada bir-biriga o‘xshash bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita tilni topib bo‘lmaydi. Olimning fikricha, til atrofdagi voqelikni turlicha ifodalaydi, shuning uchun turli tillarda so‘zlashuvchi odamlar dunyo haqida turlicha tasavurga ega. Ammo amerikalik tilshunos lingvistik determinizmni rad etadi. E.Sepir til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqliklar bevosita va har tomonlama emas, deb hisoblagan. U turli tillarni umumiy madaniyat bilan birlashtirish va turli madaniyatlarda bir tildan foydalanish mumkin, deb yozgan. Bu xulosalarning barchasi ilmiy hamjamiyatda Sepir-Uorf gipotezasining paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Bu faraz o‘zining ziddiyatli va noaniq tabiatiga qaramay, ushbu masala bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun dolzarbligini saqlab qolmoqda.

⁵⁸ Preston R. J. Edward Sapir's Anthropology: Style, Structure, and Method // American Anthropologist. – 1966. – Vol. 68 (N 5). – P. 1109.

Til nisbiyligi gipotezasi ilgari ingliz tilida so‘zlashuvchilar bilan navaxo hindulari o‘rtasidagi voqelikni idrok etishni farqlash jarayonida o‘z tasdig‘ini topgan. Lingvistik shakllarning tasnifini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, hindu bolalari ingliz bolalariga nisbatan obyektlarni turkumlashda ko‘proq shaklga murojaat qilishadi. Tilshunoslar bu faktni navaxo tilida fe‘llar va ular bilan amallar bajariladigan predmet shakllari o‘zaro grammatik bog‘liq ekanligi bilan dalillaydi.

“*E.Sepir tadqiqotlarining boshqa tillarga tarjimasi*” deb nomlangan to‘rtinchi faslda E.Sepir asarlarining boshqa tillarga, shu jumladan, rus tiliga tarjimasi dunyoda keng tarqalganligi ko‘rsatib berilgan. E.Sepirning o‘zi ingliz tilida chop etganidan so‘ng ushbu amerikalik olim ilmiy ishlarining matnlari rus, fransuz va nemis tillarida juda tez vaqt ichida paydo bo‘lgan. Zamonaning da‘vatlariga javob beradigan, turli fan sohalarida refleksiya asoslangan hamda inson haqidagi zamonaviy integrativ bilimlarga olib kelishga qodir bo‘lgan ushbu kompleks va batafsil ta‘limot dunyoning turli mamlakatlaridagi tilshunoslar va tarjimonlarni tom ma‘noda hayratda qoldirdi. Tarjimonlar E.Sepir konsepsiyasini neogumboldtianlik, deb hisoblagan va bu haqda so‘zboshida yozgan. V.fon Gumboldt g‘oyalariga uyg‘unlik shunda namoyon bo‘ladiki, E.Sepir ham tilning jamiyat, tafakkur va madaniyat bilan o‘zaro bog‘liqligiga katta e‘tibor qaratgan. Til mukammal ramziy tizim sifatida har bir madaniyatning mohiyatini ifodalaydi, zero, mazmunga ega va rasmiy ramzlarga ega bo‘lmagan til elementlari mavjud emas.⁵⁹ Insoniyatning butun tajribasi so‘z bilan bog‘liq, anglash esa dunyodan o‘zga va so‘zdan dunyoga qarab harakatlanishi asosida sodir bo‘ladi. E.Sepir eruditsiyasining yuqori darajasi va boy bilimlari uning dunyo haqdagi betakror integrativ qarashlari bilan birga turli mamlakatlar tilshunoslari va tarjimonlarini tilni inson haqidagi turli fanlar misolida yaxlit va tizimli tarzda ko‘rib chiqishga intilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa, tilshunos va tarjimon A.E.Kibrik fikricha, “kelajakdan nazar” bo‘lib chiqdi.

Bizningcha, E.Sepirning ilmiy asarlarini boshqa tillarga, xususan, o‘zbek tiliga tarjima qilish foydali bo‘ladi, zero, bu O‘zbekiston Respublikasi milliy tilshunoslik va tarjima maktabining rivojlanishiga xizmat qiladi. Nazarimizda, mahalliy mutaxassislar birlamchi manbalar bilan ko‘proq ishlashi, ayni paytda qiyosiy tahlil qilish va lingvistik fikrni xorijiy tilga tarjima qilish bo‘yicha tajriba to‘plashga hissa qo‘shishlari kerak.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishi doirasida olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Amerika tilshunosligining integrativlik, kommunikativlik, diskursivlik, madaniy markazlashuvga asoslanganlik va boshqa shu kabi tendensiyalari umumlashtirilishi oqibatida antropotsentrizm tamoyili yetakchilik qilgani ko‘zga tashlanadi.

2. Jahon tilshunosligining rivojlanishida Amerika tilshunosligining muhim ahamiyat kasb etgani E.Sepir merosi tadqiqi davomida o‘z ilmiy tasdig‘ini topadi.

⁵⁹ Ibid. – C. 228.

Amerika tilshunosligining rivojlanishi ikki bosqichga ajratilgani, bunda XX asrgacha bo'lgan davr Amerika tilshunosligi va XX asrdan keyingi Amerika tilshunosligi alohida yondashuvlar asosida shakllanganini qayd etish to'g'ri bo'ladi.

3. E.Sepir Amerika va Afrikaning yozuvsiz tillarini o'rganishda hind-yevropa tillarini o'rganuvchi olimlar qo'llagan usullarning samaradorligini isbotlaydi. Shu munosabat bilan u madaniyatning eng muhim muammolarini hal qilishda tilning evolyutsion rivojlanishining tarixiy mexanizmlari haqidagi bilimlarga tayanishni zarur deb hisoblaydi. Bu esa pirovard natijada insonning ijtimoiy xulq-atvorini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

4. E.Sepir o'z asarlarida tilshunoslikning ham sotsiologiya, ham antropologiya nazariyasi uchun ahamiyatligini asoslab beradi. Uning tilshunoslik va psixologiya o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik umumiy muammolarni hal qilish va umuman fan taraqqiyotiga xizmat qilishi haqidagi g'oyasi juda samaralidir. Olimning tilshunoslik til hodisasini biologik ma'lumotlarni hisobga olgan holda o'rganishi kerakligi haqidagi fikrini ham istiqbolli deb bilamiz.

5. Edvard Sepirning tipologik nazariyasida ularning tarixi deb ataydigan tillar hayotining o'ziga xosligini chuqur bilish zarurligi g'oyasi muhim o'rinni egallaydi. Uning tillarning hayotiy va lingvistik-kognitiv ehtiyojlari bilan oldindan belgilab qo'yilgan madaniyatlarda ham, ularni ifodalovchi tillar ham har doim ham noyob bo'lmasligi haqidagi g'oyasi tipologik tadqiqotlar nazariyasi uchun alohida qimmatga ega.

6. Aynan Edvard Sepirning ilmiy kashfiyotlari AQSh va Kanadadagi tub xalqlarning tillari, madaniyati va tarixiga oid har tomonlama bilimlar zaxirasini boyitgani shubhasiz. Uning Kanadadagi mahalliy xalqlarning genetik aloqalari haqidagi gipotezasi AQShda deskriptivizmni yangi bosqichga olib chiqishga imkon berdi.

7. E.Sepir birinchi bo'lib lisoniy nisbiylikning kelajakdagi gipotezasiga oid g'oyani ilgari surgan. Aynan shu fikrlar asosida uning shogirdi B.Uorf bu farazni shakllantirgan. Keyinchalik lingvistik nisbiylik gipotezasini yaratishga imkon bergan Edvard Sepirning asarlari inson tafakkuri va xulq-atvori jarayonida biologik hamda ijtimoiy determinantlarga asoslanadi.

8. Tadqiqotlar natijasida E.Sepirning nutq faoliyati nazariyasini o'rganishga ko'p vaqt va kuch sarflagani, bu uning "Til. Nutqni o'rganishga kirish" nomli 11 bobdan iborat bo'lgan monografiyasida o'zining yaxlit ifodasini topgani aniqlangan. Ushbu kitob tilshunos olimlarda katta qiziqish uyg'otgan va hozirgi paytda ham bu qiziqish kamaymagan. Ushbu kitobning 1934-yilda rus tiliga tarjima qilingani ham qayd etilgan fikrni dalillaydi. Undagi har bir bob tilshunoslik uchun eng dolzarb va ahamiyatli bo'lgan muammolarni o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi kunda tilshunoslik va madaniyatshunoslik bir-biridan ajralib turgan bir paytda E.Sepirning til va adabiyotning aloqadorligi haqidagi fikrlari alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Ayni davrda lingvistik poetika kabi yangi yo'nalishning kelib chiqishini o'rganishda, afsuski, bu holat e'tiborga olinmaydi.

9. Jahon (xususan, o'zbek) tilshunosligida yetarlicha e'tirof etilmagan deskriptivizmning nafaqat AQShda, balki xorijda ham rivojlanishida Edvard Sepir

asarlarning o'zini va roli katta. Uning antropologik tadqiqotlari ilmiy bilimlar modeli bo'lib qolmoqda.

10. Lingvistik nisbiylik gipotezasida kognitiv jarayonlarni aks ettirilishining o'ziga xosligi ko'rsatilgan. E.Sepir lingvistik nisbiylik muammolarini boshqa olimlar tomonidan Sepir-Uorf gipotezasidan ancha oldin tadqiq qilgan. E.Sepir ushbu g'oyani ilgari surgan bo'lsa, uni B.Uorf davom ettirgan. Biroq, E.Sepirning davrida hali gipoteza ishlab chiqilmagan edi. Hozirgi paytda Sepir-Uorf gipotezasining ikkita varianti mavjud. Birinchisi, tafakkurning tilga bog'liqligini nazarda tutsa, ikkinchisi, tafakkur va tilning jamiyatdagi shaxsning ekstralingvistik xatti-harakati shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi haqidagi mashhur nazariyaga asoslanadi.

11. E.Sepirning nazariy-uslubiy fikrlari aynan tarjimalar tufayli jahon tilshunosligi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. E.Sepir asarlari o'zbek tilshunosligining mulkiga aylanishi uchun ularni tarjima qilish va yosh tadqiqotchilar orasida ommalashtirish zarur. Buning uchun, masalan, "Xorijiy tilshunoslik" xalqaro elektron jurnalini yaratish, unda jahonga mashhur tilshunos olimlarning tarjima qilingan tadqiqotlari va sharhlarini chop etish muhim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019. FIL.05.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ЮЛДАШЕВА ДИЛШОДА МУСАЕВНА

**ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ
ЭДВАРДА СЕПИРА**

10.00.11 – Теория языка. Прикладная и компьютерная лингвистика.

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ наук (DSc)**

Фергана – 2024

Тема диссертации доктора филологических наук (DSc) зарегистрирована под номер B2024.2.DSc/Fil844 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации доступен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Ферганского государственного университета (www.fdu.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyouet" (www.ziyouet.uz).

Научный консультант: Мирзаев Ибадулла Камалович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Мухиддинов Анвар Гафурович
доктор филологических наук, профессор

Маматов Абди Эшонкулович
доктор филологических наук, профессор

Хайруллаев Хуршид Зайнбекович
доктор филологических наук, профессор


Ведущая организация: Бухарский государственный университет


Защита диссертации состоится «16» 11 2024 года в 8⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc. 03/30.12.2019.fil.05.02 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете. (Адрес: 100151, г. Фергана, ул. Б.Маргиноний, 105, Тел: (873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирован под номером 416). Адрес: 100151, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел: (873) 244-44-02; e-mail: info@fdu.uz

Автореферат диссертации разослан «29» 10 2024 года.
(Протокол реестра рассылки за № 42 от «29» 10, 2024 года.)




С.М.Муминов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор филологических наук, профессор


М.Т.Зокиров
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
кандидат филологических наук, профессор.


Ш.М.Искандарова
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы исследования. Проведение лингвокогнитивного анализа научного наследия Эдварда Сепира представляется нам весьма актуальной задачей. Роль этого ученого в развитии общего языкознания, науки и методики анализа языков сложно переоценить. Во времена его научной и преподавательской деятельности в США еще не сформировалась национальная школа языкознания с различными направлениями. Благодаря его трудам в США стали активно развиваться лингвистическая типология, фонология и социолингвистика

Существенный научный интерес представляют наблюдения Э.Сепира над языком, который он определил как неотъемлемую составляющую сознательной деятельности человека. Он подчеркивает, что все языковые единицы, обнаруживаемые на уровне фонем, символичны. Именно их символичность предстает как объективная реальность и благодаря опыту носителя языка он становится центром всех основных функций человека, в том числе, философских, психологических, когнитивных, коммуникативных, поведенческих и т.д.

Выбранная тема диссертационного исследования актуализируется в теоретико-методологическом отношении, поскольку данная проблематика нуждается в проведении дополнительных исследований с учетом реалий сегодняшнего дня и перспективных направлений дальнейшего развития лингвистического анализа. Президент Узбекистана Ш.М.Мирзиёев подчеркивает, что развитие всей системы образования с учетом современных высоких требований является первостепенной задачей.⁶⁰ В связи с этим весьма полезным представляется изучение научного наследия Э.Сепира как одного из выдающихся ученых, внесших большой вклад в развитие общего языкознания. Настоящее диссертационное исследование направлено на выявление малоизученных в современной научной литературе научно-аналитических подходов Э.Сепира к изучению языка, культуры и мышления, а также на раскрытие перспектив развития лингвистических учений на основе умозаключений Э.Сепира, представленных в его научном наследии. Все сказанное выше свидетельствует об актуальности выбранной нами темы и востребованности ее исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких как «Указ Президента Республики Узбекистан» № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., Указ Президента Республики Узбекистан УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Указ Президента Республики

⁶⁰ Файзиёв О. Образование – это знания, обеспечивающие эволюцию человечества. 18.02.2017. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://kun.uz/ru/58264229> (дата обращения: 10.10.2022).

Узбекистан № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года., Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года и др.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно – просветительского развития информационного общества и демократического государства в пути ее реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.⁶¹

Научное наследие Эдварда Сепира изучается в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в частности, в Калифорнийском университете, Центре языков американских индейцев (CAIL), Техасском государственном университете, Кембриджском университете, Американской антропологической ассоциации (ААА), Университете Небраски, Институте развития языков американских индейцев, Университете Невады, Американской лингвистической ассоциации (АЛА) (США); Университете Саймона Фрейзера, Университете Мак-Мастера, Университете Далхаузи, Университете Калгари, Университете Британской Колумбии, Западном университете, Университете Оттавы (Канада); Ассоциации когнитивной лингвистики Соединенного Королевства (UK CLA), Университете Ньюкасла (Великобритания); в Институте языкознания РАН и Философском институте РАН.

В последние годы в процессе исследования научного наследия Эдварда Сепира получен ряд научных результатов: установлено, что теоретические идеи Э.Сепира способствовали «победе боасовой парадигмы» в канадской лингвистической антропологии (Западный университет, Канада); рассмотрены аспекты влияния (неоднозначного) гипотезы Сепира-Уорфа, получившей название «гипотезы языковой относительности», на определенные типы когнитивных процессов языка (Американская

